

“BMarket smartfonlari uchun 15 GB” aksiyasing o‘tkazilish qoidalari

Ushbu Aksiya “Beeline Uzbekistan/BMarket xizmati foydalanuvchilari xavfiga asoslanmagan va faqat foydalanuvchilarni rag‘batlantirish, ularning sonini saqlab qolish, yangi foydalanuvchilarni jalb qilish va “Unitel” MChJning raqobatbardosh imidjini yaratish uchun mo‘ljallangan

“BMarket smartfonlari uchun 15 GB bonus” Aksiyasining o’tkazilish qoidalari (keyingi o’rinlarda – “**Qoidalari**”) quyidagilarni o’z ichiga oladi: “BMarket smartfonlari uchun 15 GB bonus” (keyingi o’rinlarda – “**Aksiya**”), internet bonus - paketini taqdim etish tartibi va shartlari. Aksiya shartlari bilan kompaniyaning rasmiy veb-saytida tanishishingiz mumkin..

Ushbu Qoidalarda quyidagi tushunchalar qo’llaniladi:

- **Abonent** – Operator o’z foydalanishi uchun Abonent raqamini ajratish bilan abonent shartnomasini tuzgan jismoniy shaxs;
- **Abonent raqami** – Abonent uskunasini boshqa qurilmalar bilan aloqasi paytida telekommunikatsiya tarmoqlarida identifikasiya qilib, xizmat ko’rsatish uchun Abonentga shartnoma asosida ajratiladigan raqam.
- **Kompaniya/Operator** – “Beeline” savdo belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi “Unitel” MChJ aksiya tashkilotchisi hisoblanadi;
- **Ishtirokchi** – ushbu aksiya qoidalariغا muvofiq aksiyada qatnashish huquqiga ega bo’lgan “Beeline Uzbekistan” ilovasining Foydalanuvchisi.
- **“BMarket” sayti** – www.market.beeline.uz
- **Beeline Uzbekistan** – axborot va texnologik yondashuvlar uchun mo’ljallangan va ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturlari mahsulotlari majmuasidan iborat axborot tizimidir.
- **Kompaniyaning rasmiy sayti** - www.beeline.uz.

Aksiya o’tkazilish muddati:

2024-yil 17-yanvardan 31-dekabrgacha, shu jumladan.

Aksiyaning amal qilish hududi: O’zbekiston Respublikasi

I. Aksiya ishtirokchilariga qo’yiladigan talablar

1.1. Aksiyada quyidagi talablarga javob beradigan barcha Foydalanuvchilar ishtirok etishlari mumkin:

- Abonent – BMarket veb-saytida yoki Kompaniyaning rasmiy savdo nuqtalarida istalgan smartfonini sotib olgan O’zbekiston Respublikasi hududidagi oldindan to’lov tizimining jismoniy shaxsi.

1.2. Quyidagilar Aksiyada ishtirok etish va/yoki sovrinni olish huquqiga ega bo’lmaydilar:

- Ushbu Qoidalarning 1.1-bandining talablariga javob bermaydigan foydalanuvchilar;
- “Hello 1”, “Hello 2”, “Детский”, “Победа!”, “Router”, “Router 2023”, “BeeHome 10”, “BeeHome 20”. tarif rejalarining abonentlari.

II. Aksiyada ishtirok etish va uni o’tkazish shartlari

2.1. Aksiya ishtirokchilariga faollashtirilgan kundan boshlab har oy 15 GB internet-paket 3 (uch) oy davomida taqdim etiladi (keyingi o’rinlarda “Bonus internet-paket”).

2.2. Aksiya ishtirokchilari BMarket veb-saytida yoki Operatorning rasmiy savdo nuqtalarida istalgan smartfon sotib olgan abonentlardir.

2.3. Aksiya quyidagi tartibda o’tkaziladi:

2.3.1. Abonent istalgan smartfonni BMarket veb-saytida yoki Operatorning rasmiy savdo nuqtalarida sotib oladi;
2.3.2. Abonent sotib olingan smartfonning birinchi SIM slotiga Abonent raqami bo’lgan SIM-kartani joylashtiradi;
2.3.3. Bonus internet- paket SIM-kartaga Abonent raqami faollashtirilganidan so’ng ertasiga, kun davomida raqam hisobiga o’tkaziladi.

2.3.4. Abonent Bonus internet-paketni Beeline Uzbekistan ilovasida faollashtiradi.

2.4. Bonus internet-paketi 1 (bir) marta faollashtiriladi, gigabaytlar ulangan paytdan boshlab avtomatik ravishda 30 (o’ttiz) kalendar kun davomida taqdim etiladi, 90 (to’qson) kun davomida.

2.5. Bonus internet-paketi 1 (bir) Abonent raqami va bitta smartfonda 1 (bir) marta faollashtirilishi mumkin.

- 2.6. Bonus faqat "Beeline Uzbekistan" ilovasida ulanishi mumkin.
- 2.7. Kompaniya Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarni o'tkazmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, agarda ushbu shartlarda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari asosida ko'rsatilmagan bo'lsa.
- 2.8. Kompaniya Aksiya qoidalariga tegishli ma'lumotlarni Kompaniyaning Rasmiy veb-saytida majburiy joylashtirish sharti bilan ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 2.9. Kompaniya istalgan vaqtida Aksiyani to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 2.10. Aksiya haqida ma'lumot Kompaniyaning Rasmiy saytida mavjud. Kompaniya o'zining xohishiga ko'ra Facebook yoki Instagram ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalarida Aksiyaga tegishli ma'lumotlarni joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

III. Alovida qo'shimchalar

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish bilan Ishtirokchi:
- Aksiya shartlari bilan to'liq tanishligini tasdiqlaydi va rozi bo'ladi;
 - Kompaniya tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va saqlashga roziligini tasdiqlaydi.
- 3.2. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Agar nizo kelib chiqqan kundan boshlab 60 (oltmish) kalendar kuni ichida tinch yo'l bilan kelishuvga erishishning imkonni bo'lmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudida ko'rib chiqilishi kerak.